

Z.R. Sodikov

Globallashuv sharoitida xalqaro xizmatlar eksporti rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va omillari

Mustaqil mamlakatimizning jahon bozorida o'ziga xos salohiyati va nufuzini ta'minlashda xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni barpo etish, ilg'or texnologiya asosida chuqur qayta ishlangan sanoat mahsulotlari va zamonaviy xizmat turlari eksportini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, I.Karimov «Mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalarida, xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdagi iqtisodiyotni barpo etishning asosidir. Biz iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish tadbirlarini izchillik bilan amalga oshirmoqdamiz. Bunda, bozor iqtisodiyoti – erkin iqtisodiyot ekanligi, u ochiq tusda bo'lib, yakkalanish va biqqlik unga yot ekanligidan iborat haqiqatga asoslanib ish tutmoqdamiz. Shu bois, iqtisodiyotimizning kelajagi uning jahon xo'jaligiga qo'shilishiga bog'liqdir», deb [1] tashqi bozorning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda bugungi kunda uning jahon xo'jaligi bilan aloqalarini muttasil rivojlanib borayotganligi, eksport salohiyatining kengaya borayotganligi va shu ko'p maqsadlarni ro'yobga chiqarishni ko'zda tutib belgilanayotgan aniq tadbirlar asos bo'layotganligi tabiiydir. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Aynan ana shu eng muhim vazifalar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari

Sodikov Z.R. – Toshkent Islom universitetining Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasida dotsenti, i.f.n.

va ustuvor vazifalariga jiddiy o'zgartirishlar kiritish uchun poydevor bo'lishi kerak" deb [2] ta'kidlaganlar.

Jahon iqtisodiyotidagi yetakchi moliya muassasalaridan biri bo'lmish Xalqaro Valuta Jamg'armasi (XVJ – Internatsional Monetary Fund – IMF) tomonidan berilgan ma'lumotlarga binoan, 2016-yilda ham jahon iqtisodiyoti rivojlanishining sekinlashish tendensiyasi davom etib, o'sish sur'ati 3,1 foizni tashkil etganligi qayd qilinmoqda. Ushbu masalaga doir Jahon Bankining tahliliy hisob-kitoblariga binoan esa, jahon miqyosida iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmining uzluksiz ravishda qisqarib borishi, xalqaro savdoda faollikning so'nishi, shuningdek, ba'zi taraqqiy etgan mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatlarda mavhum holatlarning vujudga kelishi singari omillar hisobiga jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish sur'ati 2,3 foizdan iborat bo'lganligi ma'lum qilingan. Shu bilan bir qatorda, 2017-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faollik darajasining ortishi va uni cheklashga sabab bo'luvchi omillarning bartaraf qilinishi, shuningdek, ushbu mamlakatlar eksport qiladigan xomashyo va mahsulotlarni import qiluvchi davlatlarda barqaror ichki talabning saqlanib qolishi natijasida jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish sur'ati 2,7 foizga teng bo'lishi prognozlarda keltirilmoqda.

Ayni paytda, XVJ tomonidan amalga oshirilgan dastlabki tahliliy hisob-kitoblarga binoan, taraqqiy etgan mamlakatlar guruhi bo'yicha hisoblangan umumiy iqtisodiy o'sish sur'ati 2015-yilda 2,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yilda 1,6 foizga teng bo'lgan va oldingi yilga qaraganda qisman pasayish tendensiyasi qayd etilgan. Xususan, jahondagi mutlaq yetakchi mamlakat bo'lmish AQShda iqtisodiy o'sish sur'ati 2016-yilda 1,6 foizni, Yevro hududi mamlakatlarida 1,7 foizni, Yaponiyada 0,9 foizni va Buyuk Britaniyada 2,0 foizni tashkil etgan hamda u mamlakatlarning barchasida iqtisodiy o'sish sur'ati 2015-yil bilan taqqoslaganda pasayganligi ma'lum bo'lmoqda. Jahondagi yirik mamlakatlar va mintaqada bunday salbiy xarakterga ega bo'lgan iqtisodiy o'sish sur'atining kelib chiqishiga ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish samarasining pastligi, inflyatsiya darajasining ortishi, iqtisodiy faollikning pasayishi, o'zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmining kamayishi, ba'zi davlatlar tomonidan yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning oqilona emasligi va global tizimdagi ijtimoiy-siyosiy murakkabliklar sabab bo'lmoqda. Kelajakda taraqqiy etgan davlatlarda umumiy iqtisodiy o'sish sur'ati 2017-yilda 1,9 foizga teng bo'lishi va 2018-yilda 2

**Xalqaro Valyuta
Jamg'armasi
ma'lumotlariga binoan
2016-xyilda taraqqiy
etgan mamlakatlar guruhi
bo'yicha iqtisodiy o'sish
oldingi yilga qaraganda
qisman pasaygan.**

Globallashuv jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri xizmatlar sektori bo'lib, uning yuksalishi hozirgi kunda milliy iqtisodiyot doirasida ham, xalqaro savdoda ham jadal avj olib bormoqda.

foizga erishishi prognoz qilinmoqda hamda bu yo'nalishda jahonda ijobiy tendensiya va yaxshilanish kutilmoqda. Jahon iqtisodiyotida kutilayotgan ushbu tendensiya 2016-yilning ikkinchi qismida, AQSh iqtisodiyotida sodir bo'lgan faollik darajasi va rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatlarning barqaror olib borilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligi keltirilmoqda. Jahon xo'jaligining taraqqiy etgan mamlakatlar qismida sodir bo'lgani kabi

rivojlanayotgan mamlakatlar qismida ham 2015–2016-yillarda o'ziga xos tendensiyalar va vaziyatlar kuzatilgan. Jumladan, jahonning har xil mintaqalarida joylashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faollik darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'tgan yillarda turlicha ko'rinishga ega bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, iqtisodiy o'sish sur'ati bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar ichida eng yetakchisi hisoblangan Xitoyda 2015-yilda – 6,9 foiz va 2016-yilda qisman pasayib 6,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, Hindistonda 2015-yilda – 7,6 foizni va 2016-yil sezilarli pasayib 6,6 foizga teng bo'lganligi, shuningdek, 2016-yilda Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari uyushmasi (ASEAN)ga kiruvchi mamlakatlarda – 4,8 foiz, past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda 3,7 foiz ekanligi qayd qilingan. Ayni paytda MDHning ta'sisчилari ichida eng yetakchisi bo'lmish Rossiya iqtisodiyotida pasayish tendensiyasi o'tgan yillarda uzluksiz davom etib kelayotganligi kuzatilmogda, jumladan, bu tendensiya 2015-yilda 3,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yilda 0,6 foizni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan keskin darajada kamayganligini xulosa qilish mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 2017-yilda umumiy o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'atining 4,5 foiz darajasigacha yuksalishi mumkinligi prognozlarda keltirilmoqda. Bu natija, kelgusi 2017-yilda iqtisodiy o'sish sur'ati rivojlanayotgan mamlakatlardan Hindistonda 7,2 foizni, Xitoyda 6,5 foizni, Rossiyada 1,1 foizni, Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari uyushmasiga kiruvchi mamlakatlarda 4,9 foizni, past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda 4,7 foizni tashkil etishi hisobiga kelib chiqishi ma'lum qilinmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri, bu xizmatlar sektori bo'lib, uning yuksalishi hozirgi kunda milliy iqtisodiyot doirasida ham, xalqaro savdoda ham jadal avj olib bormoqda. Globallashuv jarayoniga nazar soladigan bo'lsak, an'anaviy xizmat turlari tarixi madaniyat sivilizatsiyasi paydo bo'lgan davrga borib taqalishiga guvoh bo'lishi mumkin. Qadim davrlarda ham bir

davlat hududidan boshqa davlatga safarga chiqqan shaxslar, yo'llarda yoki borgan davlatida mehmonxona xizmatidan foydalanganlar, ma'lum qadamjolar bo'lsa, ularni ziyorat qilish holati kuzatilgan. Bu esa, o'sha davrlarda ham turizm, mehmonxona kabi xizmatning eksporti amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda insoniyat ulkan taraqqiyot va milliy bozorlarning chuqur globallashuvi yo'lidan jadal rivojlanib, yuksak natijalarga erishib bormoqda. Bu sohalar ichida xalqaro savdoni erkinlashtirish va rivojlantirish 1947-yildan GATT (GATT – General Agreement on Tariffs and Trade – Tarif va Savdo bo'yicha Bosh Bitim), 1995-yildan buyon JST (WTO – World Trade Organization – Jahon Savdo Tashkiloti-JST) tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, JSTda nafaqat sanoat tovarlari, balki, agrar tovarlar va xizmatlar savdosini erkinlashtirish, bojxona tariflarini pasaytirish va notarif cheklovlarni bartaraf qilish ko'zda tutilgan. Shu bois, XX asrning oxiri, XXI asr boshida jahonda tovar va xizmatlar eksporti jadal rivojlanib borayotganligini ko'rish mumkin. Xususan, JST faoliyatiga qo'shimcha ravishda xizmatlar savdosini tartibga soluvchi Xizmatlar Savdosi bo'yicha Bosh Bitim (General Agreement on Trade in Services-GATS) va Intellektual mulk huquqini tartibga soluvchi TRIPS nomli kelishuvlarni ham o'z tarkibiga qo'shib, faoliyat ko'lamini kengaytirdi. GATS tashkiloti xalqaro integratsion jarayonning uchinchi to'ldinida vujudga kelgan tashkilotlardan biri bo'lib, xalqaro xizmatlar savdosining rivojlanishi va tarkibiy takomillashuv jarayoni jadal suratda kengayib bormoqda. Zaruriy huquqiy asoslar ishlab chiqilib, mamlakatlar manfaatlariga mos keladigan tamoyillar belgilanib, xizmatlar savdosi rivojlanishini jadallashtirdi. Natijada xizmatlar savdosida rivojlanayotgan davlatlar ham ilg'orlab bormoqda. Shundan so'ng, xizmatlar savdosi jadal rivojlana boshladi va hozirda milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish darajasi xizmatlar ulushiga hamda uning eksportdagi salmog'ining takomillashuviga qarab baholanadi. Shu bois, davlatlar o'z imkoniyatidan kelibchiqib, turli xizmatlar eksportiga katta e'tibor qarata boshladi. Bu borada davlatlar o'rtasida raqobat jadallashib bormoqda. Aslida XX asrning ikkinchi yarmigacha statistik ma'lumotlar orasida xizmatlar eksporti qayd etilmagan, xizmatda qiymat yaratilmaydi, deb qaralgan. Hozirda esa xizmatlar eksporti umumiy jahon eksportining salmoqli va muhim qismini tashkil etib kelmoqda. Zero, 2008-yilda sodir bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi boshqa inqirozlarga qaraganda farqli jihatlariga ega bo'ldi.

Jahonda xizmatlar eksportining rivojlanish tendensiyalari¹

| Yillar | Xizmatlar eksporti (mlrd\$) | O'tgan yilga nisbatan o'sish (%) |
|--------|-----------------------------|----------------------------------|
| 2010 | 3891,66 | 9,4 |
| 2011 | 4364,41 | 12,1 |
| 2012 | 4458,62 | 2,2 |
| 2013 | 4700,54 | 5,4 |
| 2014 | 4947,68 | 5,2 |

Mazkur inqirozga qarshi choralarni amalga oshiruvchi tashkilotlar ham bu davrda yetarli edi. Biroq, 1997–1998-yillardagi Janubiy-Sharqiy Osiyo moliyaviy inqirozini oladigan bo'lsak, ushbu davrda xizmatlar eksporti bo'yicha muzokaralar olib boruvchi va keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiruvchi GATS bilan AFAS (ASEAN Framework Agreement on Services – AFAS) tashkilotlarga mavjud bo'lgan. Hozirga kelib esa Osiyoning o'zida xizmatlar eksporti bo'yicha 30 dan ziyod kelishuvlar mavjud [3]. JST tomonidan 2006-yilda jahonda 43 ta xizmatlar eksportini tartibga solib turuvchi mintaq va ikki davlat o'rtasida imtiyozli savdo kelishuvlari mavjudligi qayd qilingan bo'lsa, keyingi 5 yil mobaynida shunday kelishuvlar soni qariyb ikki barobar oshgan. Bu ham jahonda xizmatlar eksportining ahamiyati naqadar yuqori ekanligidan dalolat beradi. 2012-yilning oxiriga kelib, yirik iqtisodiyotli mamlakatlar ichida Rossiyadan boshqa barchasi xizmatlar eksporti bo'yicha xalqaro savdo va investitsion vaziyatni erkinlashtirishni ta'minlovchi kelishuvga ega bo'lgan. 2013-yilga kelib esa ushbu mamlakat bilan birga yana bir qator davlatlar JST, shu bilan birga, GATS tashkilotiga a'zo sifatida qabul qilingan. GATS faoliyat doirasiga kiruvchi 160 turdagi xizmatlarning qator prinsiplari bo'yicha turli qismlarga ajratiladi. Jumladan, bozorga kirish va milliy munosabat prinsiplari 52 turdagi xizmatlarni o'z tarkibiga qamrab oladi. Xizmatlar borasida hududiy va ikki tomonlama imtiyozli savdo kelishuvlari asosan qurilish va turizm xizmatlari rivojiga turtki bo'lmoqda. Shuningdek, rekreatsion, biznes, kommunikatsiya va ta'lim xizmatlari ushbu turdagi kelishuvlar ta'sirida muntazam rivojlanib bormoqda. Qolaversa, jahon moliyaviy inqirozi sharoitida davlatlar xalqaro savdoga jiddiy ta'sir etuvchi choralar qo'llay boshladi. JST, UNCTAD va OECD ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yil sentabridan 2013-yil avgust oyigacha jami 230 dan ziyod hukumat choralari qo'llanilganligi qayd etilgan. Bular xalqaro tovar va xizmatlar savdosi hamda xorijiy

¹ International Trade Statistics, World Trade Organization, Geneva-2016.

investitsiyalar siyosatiga taalluqli choralar hisoblanadi. GATS ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yilga kelib jahondagi xizmatlar savdosining 50% dan ziyod qismi xorijiy investitsiya asosida tashkil etilgan kompaniyalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu bois, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar davlat tomonidan tartibga solib turilishi muhim bo'lgan iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Xizmatlar savdosining tobora rivojlanib borishiga daromadi yuqori bo'lgan kompaniyalarning ta'siri salmoqli bo'lmoqda. Ya'ni, xizmatlarni xalqaro harakatga keltiruvchi kuch bu – xususiy sektor hisoblanadi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida xizmat turlarining keskin pasayishiga bir tomondan tovarlar savdosiga bog'liqligi sabab bo'ldi. Masalan, transport xizmati savdosi inqiroz ta'siri eng katta bo'lgan xizmat turi hisoblanadi. Inqiroz sharoitida barcha davlatlar ichki bozorni muhofaza qilish uchun proteksionistik siyosat olib borishdi. Elektron xizmatlar eksporti va importini qayd etishning o'zi muayyan qiyinchiliklar asosida bo'lishi bilan birga, unga o'rnatilgan cheklovlarning bajarilishini nazorat qilishning iloji yo'q hisoblanadi. Jahon Banki Jahon Savdo Tashkiloti bilan hamkorlikda 2013-yilda xizmatlar savdosi bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaxshilash va rivojlantirish yuzasidan hamkorlik qilishga kelishib olishdi. Ushbu ma'lumot bazasi 100 dan ortiq mamlakatda xalqaro eksport va import qilinayotgan moliyaviy xizmatlar, transport, turizm, savdo, telekommunikatsiya va biznes

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida xizmat turlarining keskin pasayishiga bir tomondan tovarlar savdosiga bog'liqligi sabab bo'ldi.

xizmatlari bilan birga turli xizmat turlarini qamrab oladi. Bu ishlab chiqilayotgan ma'lumotlar bazasidan tadqiqotchilar, siyosatchilar, savdo muzokarachilari va insonlar foydalanishi mumkin bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarni Jahon Banki Open Data Initiative ma'lumoti, JST esa I-TIP (Integrated Trade Intelligence Portal) ma'lumotlari tarkibida taqdim etishi belgilangan. Osiyoda ham Osiyo Taraqqiyot Banki o'zining portalida Osiyo mamlakatlari bo'yicha ayrim statistik ma'lumotlarni taqdim qiladi. OTB ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlarda xizmatlar eksporti ulushi 68% ni tashkil etmoqda. Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha ham xizmatlar sektori ushbu hududdagi yagona yetakchi soha hisoblanadi. 1989-yil APEC (Asian-Pacific Economic Cooperation) tashkil topgan paytda aholining 27% xizmatlar sektori bilan band bo'lsa, 2012-yilga kelib bu ko'rsatkich 61% ni tashkil etgan. Bundan tashqari, Osiyodagi bir qator yangi industrial mamlakatlar ham oz iqtisodiyotida xizmatlar eksporti ulushini oshirish yuzasidan tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Chunki, hozirgi xizmatlar eksportining Yalpi

ichki mahsulot (YIM) dagi ulushining yuqoriligiga qarab mamlakatlar iqtisodiyotiga baho berilmoqda. Bunga boshqa sohalaridagi daromadni pasaytirish emas, balki xizmatlar eksportida daromadini oshirish orqali erishish maqsad qilib olingan. GATSning turli taklif moddalari faktor bozorida turlicha ta'sir ko'rsatadi. Oddiy qilibaytganda xizmatlar iqtisodiy faoliyatni qayta ishlash, tog'-kon sanoati va qishloq xo'jaligidan farqli ravishda turli tuman guruhlardan tashkil topadi. Xizmatlar savdosida ko'plab yaratilgan imkoniyatlar natijasida 2001-yilning o'zidayoq xizmatlar eksportining YIMdagi ulushi past daromadli mamlakatlarda 45%, o'rta daromadli mamlakatlarda 57% va yuqori daromadli mamlakatlarda 71% ni tashkil etgan.

Xizmatlar faolligi oxirgi 25 yil ichida past va o'rta daromadli mamlakatlarda YIMga qaraganda tezroq o'sib bormoqda. Xalqaro xizmatlar savdosi rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar ko'p bo'lib, jumladan, dastlabki o'rinda xizmatlar savdosining xalqaro harakati jadallashuviga globallashuvning chuqurlashuvi asosiy omillardan bo'lmoqda. Bundan qariyb 30 yil avval ham dunyo ikki siyosiy blokka ajralgan edi. Biror-bir davlat boshqa bir davlat bilan o'zaro hamkorlik qilmasdan, aloqalar o'rnatmasdan turibrivojlana olmaydigan shunday davrda xizmatlar eksporti katta sahnaga chiqdi va xalqaro miqyosda tovarlar savdosidan ham yuqori sur'atlarda o'sishiga olib [4] keldi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishi bu sohadagi eksport hajmining ma'lum darajada tushishiga olib keldi. Keyingi yillarda xizmatlar eksporti faqat o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Xizmat sohasini va uning eksportini muntazam rivojlantirishga chiqindilarsiz ishlab chiqarish va daromad topish imkoniyatlarining ko'pligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zero, hozirgi davrda atmosferaga zarar yetkazmagan holda ishlab chiqarish dolzarb masala hisoblanadi. Birinchi jahon urushidan so'ng, jahonning ko'plab mamlakatlarida sanoat tez sur'atlarda taraqqiy topdi. Natijada atmosferaga ko'plab zararli chiqindilar chiqarildi. Oxir-oqibat bu, hatto azon qatlamida tuynuk hosil bo'lishiga va uning kengayishiga sabab bo'ldi. Shu bois, zararsiz va chiqindisiz ishlab chiqarishga ehtiyoj tobora ortib borayotgan bir davrda xizmatlar eksporti optimal daromad topish yo'li sifatida maydonga chiqdi. Chunki,

Globallashuvning chuqurlashuvi xizmatlar savdosining xalqaro harakati jadallashuviga asosiy omillardan biri bo'lmoqda.

tovarlarga qaraganda osonroq, tezroq va kam xarajat bilan yetkazib berish imkoniyati mavjud va tovarlarni yetkazib berishga qaraganda samaraliroq hisoblanadi. Xususan, ko'plab elektron xizmatlarni yetkazish maqsadida xorijga borib kelishga hojat yo'q, balki bu borada internet xizmati o'zining samarasini beradi. GATS tashkil etilgandan so'ng aniqlangan statistik

ma'lumotlarga ko'ra, xizmatlardagi xarajatlar tovarlar ishlab chiqarishdagi xarajatlarga qaraganda barqarorligi o'z isbotini topgan. Turli hududlarda ayrim xizmat turlariga ehtiyojning mavjudligi, jumladan, ikki davlat o'rtasida qurilishi kerak bo'lgan neft, gaz yoki shu kabilarni yetkazibberish uchun quvur yoki shunga o'xshash moslama qurishda quruvchilar xizmatiga ehtiyoj paydo bo'lganidek, transport xizmati, bank xizmati, sug'urta xizmati kabi xizmat turlariga aholi daromadining oshgani sari talab ham ortib bormoqda. Shuningdek, past daromadli mamlakatlarda xizmatlar yetarli darajada rivojlanmaganligi bois, ayrim xizmat turlari bo'yicha ehtiyojni tashqi bozor hisobiga qondirishga harakat qiladilar. Aslida ham xizmatlarning xalqaro harakati shu kabi sabab tufayli keng ko'lamda ommaviylashib bormoqda. GATS tashkiloti tomonidan tuzilgan dasturlar va ko'riladigan tadbirlar barcha mamlakat uchun foydali hisoblanadi, ya'ni biror bir mamlakatning ma'lum turdagi xizmatlarga ehtiyoji mavjud bo'lsa, shunday xizmatni ta'minlovchilar uchun xalqaro harakat yanada ortadi. Xizmatlar savdosi bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida raqobatning kuchliligi, jarayonning rivojlanishiga zamin hozirlamoqda. Bunday vaziyatda xizmatlar sifatining yaxshilanishi raqobatning samarasini isbotlaydi. Shu sababdan, har bir xizmat eksporti bilan shug'ullanuvchi tadbirkor astoydil harakat qilib, sifat va miqdor jihatidan afzallikka erishishni o'z oldiga maqsad qilib, rivojlanishga sharoit yaratadi. Ishchi kuchining malakasi ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlarga qaraganda xizmat sohasi va eksportida ahamiyatliroq hisoblanadi. Bularning malakasi yuqoriligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yuksalishiga va kishilar farovonligining ortishiga omil bo'ladi. Bundan tashqari, aksar xizmatlarning xalqaro migratsiyasi ham qulay bo'lgani uchun uning savdosi jadal rivojlanmoqda. Xususan, masofadan turibo'qitish, tibbiy operatsiyalarni amalga oshirish, marketing xizmatlarini chegaradan o'tmasdan ham xalqaro savdoda ishtirok etishi, buning yaqqol tasdig'i demakdir. Muntazam ravishda jahon miqyosidagi xalqaro kelishuvlarning takomillashib borishi. Masalan, 2005-yil Doha kelishuvida xizmatlar savdosini muayyan tizim asosida faoliyatini kengaytirish ko'zda tutilgan. Jumladan, xizmatlar savdosini liberallashtirish orqali xizmatlar savdosining xalqaro harakatini yanada jadallashtirish, xalqaro xizmatlar savdosida mamlakatlarning o'zaro hamkorligini faollashtirish kabilarni keltirish mumkin.

GATS tashkiloti tomonidan tuzilgan dasturlar va ko'riladigan tadbirlar barcha mamlakat uchun foydali hisoblanadi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va ahamiyati muntazam ravishda ortib bormoqda. Buning asosi haqida Birinchi Prezidentimiz I.Karimov «Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo

etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro Valuta Jamg'armasi, Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda», deb [5] alohida ko'rsatib o'tgan. Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning jadal sur'atlar bilan yuksalishi va globallashtirish jarayonining izchil chuqurlashuvi xalqaro iqtisodiy aloqalarning barcha sohalarini va xususan, xizmatlar eksportining shiddat bilan rivojlanibborishiga asos bo'lmoqda. Mazkur jarayondan, har bir mamlakat, yani, rivojlanayotgan va taraqqiy etgan davlatlar o'zi uchun yetarli darajada ulush olishga harakat qilmoqda. Chunki, jahon hamjamiyati bilan bir safda harakat qilinmasa, taraqqiyotdan va zamonaviy yutuqlardan mahrum bo'lib qolish mumkin. Shu bois, jahonda erishilayotgan yutuqlardan samarali foydalanish maqsadida mamlakatimizda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish, ularni nafaqat ichki bozorda, balki eksportini faollashtirish va kengaytirish talab etiladi.

Adabiyotlar

1. *Karimov I.A.* O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1999. – B. 267.
2. *Mirziyoyev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 9.
3. *Martin Molinuevo*, Protectionism in services during the global crisis—a (trade) war in shallow trenches, 2010. – P. 23.
4. BMT, UNCTAD HANDBOOK OF STATISTICS 2014. New York and Geneva: – P. 218.
5. *Karimov I.A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.